



## YANGI O'ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

*i.f.d., akademik, prof. Gulyamov Saidahrор*  
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,  
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti  
ORCID: 0009-0006-9594-8516

[s.gulyamov@kiut.uz](mailto:s.gulyamov@kiut.uz)

*i.f.d., akademik, prof. Ochilov Akram*  
O'zbekiston Respublikasi Turon Fanlar akademiyasi,  
Qarshi davlat universiteti  
ORCID: 0009-0004-9254-188

[akram.oo@mail.ru](mailto:akram.oo@mail.ru)

**Rashidov Azizjon**  
Qarshi davlat universiteti  
ORCID: 0009-0008-2281-3463  
[azizvohidovich@gmail.com](mailto:azizvohidovich@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada 2024-yilda qabul qilingan "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun (№ O'RQ-970) hamda Prezidentning 2026-yil 16-fevraldagi PQ-64 va 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarorlarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt (SI) kreativ iqtisodiyot rivojida muhim omil sifatida namoyon bo'lib, ijodiy mahsulot yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi va shu bilan birga an'anaviy kasblar oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yadi. Tadqiqotda SI texnologiyalarining san'at, musiqa, kino, adabiyot va media sohalariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Generativ neyron tarmoqlar, mashinaviy o'qitish va tabiiy tilni qayta ishlash vositalarining ijodiy jarayon samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. O'zbekiston misolida SI ko'nikmalariga ega kreativ mutaxassislarni tayyorlashning strategik zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, mualliflik huquqi, intellektual mulk himoyasi va frilans mehnat bozoridagi o'zgarishlar masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, SI kompetensiyalari, kreativ iqtisodiyot, frilans bozori, raqamlashtirish, generativ neyron tarmoqlar, mashinaviy o'qitish, intellektual mulk, kreativ industriyalar.

## РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОЙ ЭКОНОМИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

*д.э.н., академик, проф. Гулямов Саидахрор*  
Академия наук Республики Узбекистан,  
Ташкентский международный университет Кимё

*д.э.н., академик, проф. Очиллов Акрам*  
Академия наук «Турон» Республики Узбекистан,  
Каршинский государственный университет  
**Рашидов Азизжон**

Каршинский государственный университет

**Аннотация.** В статье рассматриваются стратегические направления реализации Закона Республики Узбекистан «О креативной экономике» (№ ЗРУ-970, 2024 г.), а также постановлений Президента № ПП-64 (16.02.2026 г.) и № ПП-358 (14.10.2024 г.), направленных на поддержку и развитие креативного сектора. Показано, что искусственный интеллект (ИИ) становится ключевым фактором трансформации креативной экономики, расширяя возможности создания творческого продукта и одновременно формируя новые вызовы для традиционных профессиональных сфер. Анализируется влияние ИИ на такие креативные индустрии, как искусство, музыка, кино, литература и медиа. Особое внимание уделяется применению генеративных нейронных сетей, технологий машинного обучения и обработки естественного языка в оптимизации творческих процессов. На примере Узбекистана обоснована необходимость подготовки специалистов нового поколения, владеющих ИИ-компетенциями. Также рассмотрены вопросы авторства, защиты интеллектуальной собственности и изменений на рынке фриланс-труда в условиях активного внедрения ИИ.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, ИИ-компетенции, креативная экономика, фриланс-рынок труда, цифровизация, генеративные нейронные сети, машинное обучение, интеллектуальная собственность, креативные индустрии.

## THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE CREATIVE ECONOMY OF NEW UZBEKISTAN

*DSc, academic, prof. Gulyamov Saidahrur  
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,  
Kimyo International University in Tashkent*

*DSc, academic, prof. Ochilov Akram  
Turon Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan,  
Karshi State University  
Rashidov Azizjon  
Karshi State University*

**Abstract.** The article examines the strategic priorities for implementing the Law “On the Creative Economy” (No. ZRU-970, 2024) as well as Presidential Resolutions No. PP-64 (February 16, 2026) and No. PP-358 (October 14, 2024), aimed at supporting and advancing the creative sector in New Uzbekistan. Artificial intelligence (AI) is identified as a transformative driver of the creative economy, expanding opportunities for creative production while simultaneously introducing new challenges for traditional professions. The paper explores the impact of AI on creative industries, including art, music, film, literature, and media. Particular emphasis is placed on the role of generative neural networks, machine learning, and natural language processing technologies in enhancing creative efficiency and productivity. Using Uzbekistan as a case example, the study substantiates the strategic importance of training creative professionals equipped with AI-related competencies. The issues of authorship, intellectual property protection, and the evolving freelance labor market in the context of widespread AI adoption are also discussed.

**Keywords:** artificial intelligence, AI competencies, creative economy, freelance labor market, digitalization, generative neural networks, machine learning, intellectual property, creative industries.

## Kirish.

O'zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishga bo'lgan qat'iy e'tibori uning quyidagi fikrida o'z ifodasini topgan: «Kreativ iqtisodiyot — bu shunchaki iqtisodiyotning bir sohasi emas, balki yaqin o'n yilliklarda millatimiz taraqqiyotini harakatga keltiradigan yangi fikrlash va faoliyat yuritish uslubidir».

Bugungi kunda kreativ iqtisodiyot sun'iy intellekt ta'siri ostida chuqur transformatsiya davrini boshdan kechirmoqda. Ilgari ijod faqat inson faoliyatiga xos jarayon deb qaralgan bo'lsa, hozirda sun'iy intellekt tizimlari dasturiy mahsulotlar yaratmoqda, musiqa va matnlar yozmoqda, tasvirlar generatsiya qilmoqda hamda hatto filmlar suratga olmoqda. Bu shunchaki texnologik taraqqiyot emas, balki ijod mohiyati va uning iqtisodiyotdagi o'rnini anglashda tub burilishdir.

Tadqiqotlarga ko'ra, sun'iy intellekt kreativ industriyalar qiyofasini tez sur'atlarda o'zgartirmoqda, bunda innovatsion texnologiyalar ijodiy kontentni yaratish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarining ajralmas qismiga aylanmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022a).

San'at, musiqa, kino, adabiyot va ommaviy axborot vositalarini qamrab olgan kreativ iqtisodiyot allaqachon vazifalarni avtomatlashtirish, yangi ijodiy formatlarni ishlab chiqish hamda auditoriya bilan o'zaro aloqani optimallashtirish uchun sun'iy intellektdan faol foydalanmoqda. Generativ neyron tarmoqlar, mashinaviy o'qitish, nutqni aniqlash va tabiiy tilni qayta ishlash kabi SI vositalari nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshiradi, balki o'zini ifoda etish va ijodiy o'zini ro'yobga chiqarishning yangi imkoniyatlarini ham kengaytiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022a).

Mavzuning dolzarbligi turli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan strategik tashabbuslar bilan ham tasdiqlanadi. Jahon miqyosida kreativ industriyalar yiliga taxminan 2,3 trillion AQSh dollari miqdorida daromad keltirib, global YAIMning 3,1 foizini ta'minlaydi. O'zbekistonda esa 2030-yilgacha sun'iy intellekt yo'nalishida 5 million kreativ yetakchini tayyorlash, shundan 2026-yilda 0,5 million nafarini shakllantirish kabi ulkan maqsad qo'yilgan (UNCTAD, 2022). Bu iqtisodiy rivojlanish uchun ijodiy salohiyat va texnologik savodxonlik uyg'unligining naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Muhim bosqichlardan biri sifatida 2024-yilda "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonun (№ O'RQ-970) hamda 2026-yil 16-fevraldagi kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi Prezident qarori (№ PQ-64) qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi, 2024; O'zbekiston Respublikasi, 2026). 2024-yil oktabr oyida Toshkent shahrida 80 ta davlatdan 2000 dan ortiq ishtirokchini jamlagan IV Jahon kreativ iqtisodiyot konferensiyasining o'tkazilishi mamlakatning ushbu yo'nalishdagi sa'y-harakatlari xalqaro miqyosda e'tirof etilganini tasdiqladi.

## Adabiyotlar sharhi.

Kreativ iqtisodiyot va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir muammosi so'nggi yillarda ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda yoritib kelinmoqda. R. Florida (2012) kreativ sinf va innovatsion iqtisodiyotning o'sishini inson kapitali va madaniy muhit bilan bog'lab ko'rsatgan. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, kreativ iqtisodiyot an'anaviy san'atdan tortib raqamli kontent va dasturiy ta'minotgacha bo'lgan keng faoliyat doirasini qamrab oladi (UNCTAD, 2022). Sining iqtisodiyot va mehnat bozoriga ta'siri E. Brynjolfsson va A. McAfee (2014), shuningdek L. Nedelkoska va G. Quintini (2018) tomonidan chuqur o'rganilgan. Ularning fikricha, avtomatlashtirish rutinali vazifalarni qisqartirsa-da, yangi kompetensiyalarga ega mutaxassislar talabni oshiradi. Generativ neyron tarmoqlar (GAN) va tavsiya tizimlarining ijodiy jarayonlarga integratsiyasi I. Goodfellow va hammualiflari (2014), G. Adomavicius va A. Tuzhilin (2005) ishlarida texnologik asoslari yoritilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022a; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025; Mirziyoyev, 2021; G'ulyamov, 2026) kreativ iqtisodiyotning

raqamli transformatsiyasi, aqliy mehnatning o'ziga xosligi va davlat siyosatining roli tahlil qilingan. Biroq, O'zbekiston sharoitida Sining kreativ industriyalarga ta'sini kompleks baholovchi, mehnat bozori transformatsiyasi va mualliflik huquqi masalalarini integratsiyalashgan ilmiy ishlar yetarli emas. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik-ekonometrik baholash hamda hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

1. Nazariy tahlil orqali kreativ iqtisodiyot tushunchasi, aqliy va jismoniy mehnat natijalarining farqlari (1-jadval) hamda Sining kreativ jarayonlardagi funksional rollari aniqlandi.

2. Qiyosiy tahlil an'anaviy va raqamli ijod modellari, shuningdek global va milliy ko'rsatkichlar solishtirildi.

3. Statistik tahlil 2020–2024 yillar davomida O'zbekiston kreativ iqtisodiyotining YAIMdagi ulushi, eksport hajmi, bandlik darajasi, moliyalashtirish ko'lami va oliy ta'lim ko'rsatkichlarini o'rganishga asoslandi. Ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi, vazirliklar hisobotlari va Prezident qarorlaridan olindi.

4. Hujjatlarni tahlil qilish orqali № O'RQ-970, PQ-64, PQ-358-son qarorlar hamda xalqaro strategik hujjatlar (UNCTAD, OECD) me'yoriy asoslari baholandi. Tadqiqotning analitik doirasi sun'iy intellekt, generativ modellar, mashinaviy o'qitish, intellektual mulk va frilans mehnat bozori kabi tushunchalar kesimida shakllantirilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sun'iy intellekt va kreativ iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro ta'sirning nazariy asoslari.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasining konseptual ta'rifi. Kreativ iqtisodiyot — bu ijodkorlik, innovatsiya va intellektual kapital asosiy ishlab chiqarish resurslari hisoblangan iqtisodiy sektor hisoblanadi. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, kreativ iqtisodiyot an'anaviy san'at turlaridan tortib raqamli kontent va dasturiy ta'minot ishlab chiqishgacha bo'lgan keng faoliyat sohaslarini qamrab oladi (UNCTAD, 2022; Florida, 2012).

Kreativ iqtisodiyotning asosiy xususiyati shundaki, undagi aqliy mehnat jismoniy mehnatdan tubdan farq qiladi. 1-jadvalda ko'rsatilganidek, ijodiy mehnat natijalari cheklanmagan va ko'p qirrali bo'lib, ulardan foydalanish jarayonida bilimlar kamaymaydi, aksincha, tobora ortib boradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022a).

### 1-jadval.

#### Aqliy (intellektual) va jismoniy mehnat natijalarining taqqoslama tavsifi

№	Aqliy ijodiy mehnat natijalari	Jismoniy mehnat natijalari
1	Ulardan foydalanilganda cheklanmaydi va ko'p qirrali bo'lib, inson hayoti sifatini oshiradi	Foydalanish jarayonida resurslar kamayadi (tabiiy resurslar, vaqt, inson kapitali), sifat kamdan-kam hollarda yaxshilanadi
2	Bilimlardan foydalanish ularni kamaytirmaydi, aksincha zarur tajriba sifatida to'planadi va yangi global kollektiv bilimlar yaratilishiga asos bo'ladi	Asosan faqat individual tajribaning ortishiga xizmat qiladi
3	Ilmiy-texnik inqilob texnologik rivojlanish bosqichlari doirasida siklik tarzda rivojlanadi va global kollektiv intellektdan foydalanadi	Jarayon resurs sarfi ortib borishi bilan takrorlanadi va alohida ishchining imkoniyatlari bilan cheklanadi
4	Masofadan turib (internet orqali onlayn) amalga oshirilishi va bir vaqtning o'zida millionlab iste'molchilarga tarqatilishi mumkin. Frilanserlar soni 1,5 milliard kishiga yetgan	Muayyan ish rejimi va ish joyida bajarishni talab qiladi, masofadan bajarish imkoniyati mavjud emas

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022.*

Jadvalda zamonaviy bilimlar iqtisodiyoti sharoitida aqliy ijodiy mehnat va jismoniy mehnat natijalarining taqqoslama xususiyatlari keltirilgan. Unda aqliy ijodiy mehnat jismoniy mehnatga nisbatan mutlaqo boshqa xususiyatlarga ega ekani ko'rsatilib, bu holat raqamlashtirish jarayonlari va kreativ iqtisodiyot rivoji sharoitida uning strategik ahamiyatini belgilab beradi.

Aqliy mehnat natijalari cheksizlik va sifatni yo'qotmasdan ko'p marotaba foydalanish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular bilimlarning to'planishiga hamda kollektiv intellektual kapital shakllanishiga xizmat qiladi. Jismoniy mehnat esa cheklangan resurslarga tayanadi va foydalanish jarayonida ushbu resurslarning kamayishiga olib keladi, bunda tajriba asosan individual darajada to'planadi.

Shuningdek, aqliy mehnatning ilmiy-texnik taraqqiyotdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Ilmiy-texnik rivojlanish texnologik bosqichlar doirasida siklik tarzda kechib, global kollektiv intellektdan foydalanishga asoslanadi. Aksincha, jismoniy mehnat operatsiyalarning takrorlanuvchanligi va alohida ishchining jismoniy imkoniyatlariga bog'liqligi bilan tavsiflanadi, bu esa uni keng miqyosda rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Bundan tashqari, aqliy ijodiy mehnat masofaviy shaklda samarali amalga oshirilishi va global miqyosda kengaytirilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Bu esa frilans bandlikning rivojlanishi hamda transmilliy hamkorlik shakllarining kengayishiga xizmat qiladi. Jismoniy mehnat esa odatda ish joyida bevosita ishtirok etishni va qat'iy belgilangan sharoitlarda faoliyat yuritishni talab qiladi, natijada uning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi moslashuvchanligi va elastikligi ancha past bo'ladi.

Umuman olganda, keltirilgan farqlar aqliy ijodiy mehnatning kreativ iqtisodiyotning asosiy resursi hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanini tasdiqlaydi.

Sun'iy intellektning kreativ jarayonlardagi roli.

Sun'iy intellekt kreativ iqtisodiyotda uchta asosiy funksiyani bajaradi. Avvalo, u ijodiy xodimlarni takrorlanuvchi jarayonlardan ozod qilib, ularning bevosita ijodiy faoliyatga e'tibor qaratishiga imkon yaratadi. Masalan, musiqa sanoatida sun'iy intellekt treklarni avtomatik mastering qilish, dizayn sohasida maketlarni turli formatlarga moslashtirish, adabiyotda esa matnlarning grammatikasi va uslubini tekshirish vazifalarini bajarishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2025).

Generativ neyron tarmoqlar (GAN, GPT, DALL-E, Midjourney) matnlar, tasvirlar, musiqiy kompozitsiyalar va videolargacha bo'lgan original asarlarni yaratish imkoniga ega. Bu jarayon mavjud namunalarni oddiy nusxalash emas, balki o'rgatilgan modellar asosida yangi kombinatsiyalarni shakllantirishni anglatadi (Goodfellow et al., 2014).

Sun'iy intellekt auditoriya afzalliklarini tahlil qilib, kontent yaratuvchilarga mahsulotni maksimal darajada jalb etuvchan qilishda yordam beradi. Netflix va Spotify kabi platformalar tavsiya algoritmlaridan foydalanib, bir vaqtning o'zida marketing vositasi va yangi kontent yaratish uchun ma'lumot manbai sifatida xizmat qilmoqda (Adomavicius and Tuzhilin, 2005).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun'iy intellekt kreativ jarayonlarni transformatsiya qiluvchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Uning joriy etilishi nafaqat ijodiy faoliyatning ayrim bosqichlarini avtomatlashtiradi, balki kreativ mahsulotni yaratish, tarqatish va iste'mol qilishning mutlaqo yangi modellarini shakllantiradi. An'anaviy raqamlashtirish vositalaridan farqli ravishda, sun'iy intellekt tahliliy, generativ va moslashuvchan funksiyalarni bajarib, ijodiy ishlab chiqarish chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Kreativ jarayonlarda SI qo'llanilishining eng muhim yo'nalishlaridan biri — rutinali va yordamchi operatsiyalarni avtomatlashtirishdir. Dizayn, musiqa, kino sanoati va adabiy ijodda mutaxassislar vaqtining katta qismi ilgari texnik hamda takrorlanuvchi vazifalarga sarflangan. Mashinaviy o'qitish algoritmlaridan foydalanish rang tanlash, video montaj, ovoz sifatini tuzatish, matnlarning uslubiy va grammatik tahririni avtomatlashtirish imkonini beradi.

Natijada ijodkorlarning intellektual resurslari bo'shab, ular faoliyatning konseptual va mazmuniy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Sun'iy intellektning generativ modellari rivojlanishi ham alohida ahamiyatga ega. Generativ neyron tarmoqlar, transformerlarga asoslangan modellar va chuqur o'qitish algoritmlari matnlar, tasvirlar, musiqiy asarlar hamda audiovizual kontent yaratishda qo'llanilmoqda. Kreativ industriyalarda SI mavjud namunalarni mexanik takrorlovchi vosita emas, balki katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish asosida yangi shakllarni sintez qiluvchi instrument sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa eksperimental san'at shakllari, shaxsiylashtirilgan kontent va kreativ g'oyalarni tezkor prototiplash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt kreativ jarayonlarning analitik ta'minotida ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy SI tizimlari auditoriya xatti-harakati va qiziqishlarini tahlil qilish, jalb etilish darajasi hamda kreativ mahsulotlarning tijoriy salohiyatini prognoz qilish imkoniga ega. Media va ko'ngilochar sanoatda tavsiya algoritmlari nafaqat kontentni tarqatish, balki uni yaratish bosqichida qaror qabul qilish vositasi sifatida ham qo'llaniladi. Natijada kreativ jarayon ma'lumotlarga asoslangan modelga o'tib, iqtisodiy samaradorlik oshadi va muvaffaqiyatsiz loyihalar xavfi kamayadi.

Sun'iy intellektning kreativ industriyalardagi mehnatni tashkil etishga ta'siri ham muhimdir. SI vositalarining keng tarqalishi masofaviy bandlik, loyiha asosida ishlash va frilans modellarning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kreativ mutaxassislar global raqamli muhitda faoliyat yuritib, sun'iy intellektdan samaradorlikni oshiruvchi universal vosita sifatida foydalanmoqda. Natijada yangi turdagi mutaxassislar — ijodiy kompetensiyalarni intellektual tizimlar bilan ishlash ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirgan professional kadrlar shakllanmoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni kreativ jarayonlarga joriy etish qator nazariy va amaliy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Eng muhim masalalardan biri — SI tomonidan yaratilgan kontent muallifligi va intellektual mulk huquqi muammosidir. Ijodiy natijadagi inson va mashina hissasi chegaralari tobora noaniq bo'lib bormoqda, bu esa mavjud huquqiy va etik me'yorlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bundan tashqari, standart kreativ vazifalarni bajaruvchi mutaxassislarning qisqarish xavfi ortib, qayta tayyorlash va yangi kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda.

O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotga sun'iy intellekt ta'sirining miqdoriy bahosi

O'zbekiston kreativ iqtisodiyotni maqsadli va tizimli rivojlantirish, ayniqsa raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratish borasida namuna bo'la oladigan davlatlardan biri hisoblanadi. 2024 yil holatiga ko'ra, kreativ iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 3,7 foizga yetib, qiymat jihatidan 56,8 trillion so'mni tashkil etdi. Kreativ mahsulot va xizmatlar eksporti 770,6 million AQSH dollaridan oshdi, ushbu sohada band bo'lganlar soni esa 319 ming nafardan ortiqni tashkil etib, kreativ industriyalarning milliy iqtisodiyotdagi roli ortib borayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat strategiyasida ushbu sektorni kengaytirish bo'yicha uzoq muddatli maqsadlar belgilangan. 2030 yilga borib kreativ iqtisodiyot ulushini YAIMning 5 foizigacha (taxminan 145 trillion so'm) yetkazish, eksport hajmini 1 milliard AQSH dollariga oshirish hamda 500 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar alohida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashdan barqaror va milliy iqtisodiy o'sish modeliga integratsiyalashgan kreativ iqtisodiyot ekotizimini shakllantirish bosqichiga o'tilayotganini anglatadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2026).

So'nggi besh yil ichida erishilgan sezilarli yutuqlar ko'p jihatdan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining amalga oshirilishi bilan bog'liq. Ushbu strategiya doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda raqamli transformatsiya sharoitida faoliyat yurita oladigan inson kapitalini shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida

belgilangan. Bundan tashqari, “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi yosh mutaxassislarini kreativ va innovatsion faoliyatga jalb etish, shuningdek kreativ industriyalar subyektlarini moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali sektor o'sishiga qo'shimcha turtki berdi.

Statistik ma'lumotlar sektorning miqdoriy va sifat jihatdan tez rivojlanayotganini ko'rsatadi. 2020–2024 yillar oralig'ida kreativ iqtisodiyot sohasidagi loyihalar soni qariyb besh baravar oshdi, bu esa tadbirkorlik faolligining kuchayishi va kreativ yo'nalishlar spektrining kengayganidan dalolat beradi. Shu davrda moliyaviy qo'llab-quvvatlash hajmi 8,2 baravar ortib, 2020 yildagi 112 milliard so'mdan 2024 yilda 915 milliard so'mga yetdi. Mazkur investitsiyalar asosan raqamli kontent, dizayn, audiovizual industriyalar, IT-xizmatlar hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega ta'lim va madaniy loyihalarni rivojlantirishga yo'naltirildi.

Mehnat bozorida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Kreativ industriyalarda band bo'lganlar soni uch baravardan ko'proq oshib, 2020 yildagi 14,3 ming ish o'rnidan 2024 yilda 46,7 mingga yetdi. Yangi ish o'rinlarining muhim qismi raqamli platformalar, frilans va loyiha asosidagi bandlik segmentlarida shakllanmoqda. Bu esa an'anaviy bandlik modellari transformatsiyalanib, kreativ iqtisodiyotga xos moslashuvchan ish shakllari kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Sektorning barqaror rivojlanishida oliy ta'lim tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida 2022–2023 o'quv yilida “san'at va gumanitar fanlar” yo'nalishlarida 93 513 nafar talaba tahsil olgan. 2024–2025 o'quv yiliga kelib talabalar soni qariyb 30 foizga oshdi, bu esa yoshlar orasida kreativ kasblarga qiziqish ortib borayotganini hamda ijodiy va raqamli kompetensiyalarni birlashtirgan mutaxassislarga talab kuchayganini anglatadi. Qator universitetlarda san'at, dizayn, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt integratsiyasiga asoslangan fanlararo ta'lim dasturlari joriy etilmoqda, bu esa kreativ iqtisodiyot uchun yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun institutsional, moliyaviy va ta'limiy sharoitlarni izchil shakllantirib borayotganini tasdiqlaydi. Raqamlashtirish va sun'iy intellektga berilayotgan ustuvor e'tibor nafaqat sektor o'sishini tezlashtirmoqda, balki uning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirib, uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy samaralarni ta'minlamoqda.

**Qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklar. Mehnat bozori transformatsiyasi**

Sun'iy intellektning keng joriy etilishi sharoitida kreativ iqtisodiyot rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri bandlik tuzilmasining ehtimoliy o'zgarishi hisoblanadi. Ayrim baholashlarga ko'ra, yaqin 10–15 yil ichida kreativ industriyalardagi ish o'rinlarining 40 foizigacha qismi qisman yoki to'liq avtomatlashtirilishi mumkin (Brynjolfsson and McAfee, 2014; Nedelkoska and Quintini, 2018). Bu jarayon, ayniqsa, chuqur konseptual yoki madaniy tahlilni talab qilmaydigan, standartlashgan va takrorlanuvchi kreativ faoliyat turlariga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

Kreativ sohadagi rutinali vazifalarning avtomatlashtirilishi sun'iy intellekt tizimlarining katta hajmdagi ma'lumotlarni tez qayta ishlash va barqaror namunalarni minimal xarajatlar bilan takrorlash qobiliyati bilan izohlanadi. Natijada shablon matnlar yozish, stok tasvirlar yaratish, oddiy musiqa va video mahsulotlar tayyorlash kabi tipik operatsiyalarga bo'lgan talab kamayadi. Bu esa mehnat bozorida raqobatning kuchayishiga va mutaxassislarning malaka darajasiga qo'yiladigan talablarning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni amaliyotga joriy etish tajribasi uning inson ijodkorligiga nisbatan ko'proq komplementar — ya'ni to'ldiruvchi rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Kreativ jarayonlarda sun'iy intellekt ko'pincha insonni to'liq almashtiruvchi vosita emas, balki g'oyalarni tez ishlab chiqish, unumdorlikni oshirish va mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi yordamchi instrument sifatida namoyon bo'ladi (Brynjolfsson and McAfee, 2014).

Mazkur jarayonlar fonida yangi turdagi mutaxassislar — ijodiy ko'nikmalarni texnologik kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirgan professional kadrlar shakllanmoqda. Ular shartli ravishda "kreativ texnologlar" deb ataladi. Bunday mutaxassislarning asosiy ustunligi sun'iy intellekt vositalaridan ijodiy va amaliy masalalarni samarali hal etishda foydalana olish qobiliyatida bo'lib, bu ularning mehnat bozoridagi talabini oshiradi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022a).

Shunday qilib, sun'iy intellektning kreativ industriyalarga ta'siri ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, rutinali funksiyalar qisqaradi yoki yo'qoladi, ikkinchi tomondan esa yangi kasbiy yo'nalishlar va bandlik shakllari paydo bo'ladi. Bunday sharoitda uzluksiz ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash tizimlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tizimlar fanlararo kompetensiyalarni shakllantirish hamda inson kapitalini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishga xizmat qiladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Zamonaviy sharoitda sun'iy intellekt kreativ iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lib, kreativ mahsulotni yaratish, tarqatish va tijoratlashtirish jarayonlariga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Uning ta'siri tizimli xarakterga ega bo'lib, nafaqat texnologik jihatlarni, balki kreativ industriyalarning faoliyatining institutsional, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy asoslarini ham qamrab oladi. O'tkazilgan tahlil nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bir qator umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Avvalo, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kreativ iqtisodiyotda sun'iy intellekt asosan inson ijodkorligiga nisbatan komplementar (ya'ni to'ldiruvchi) funksiyani bajaradi. Uni qo'llashning eng samarali va barqaror modellari inson va intellektual tizimlar o'rtasida funksiyalarni qayta taqsimlashga asoslanadi: bunda sun'iy intellekt ma'lumotlarni tahlil qilish, jarayonlarni avtomatlashtirish hamda turli variantlarni generatsiya qilish vazifalarini bajaradi, inson esa mazmun yaratish, badiiy konsepsiyalarni shakllantirish va madaniy kontekstni belgilashda yetakchi rolni saqlab qoladi. Bunday yondashuv sun'iy intellektning ijodkorlikni siqib chiqaruvchi omil sifatida emas, balki samaradorlikni oshiruvchi va ijodiy imkoniyatlarni kengaytiruvchi vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Kreativ iqtisodiyot rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlari sun'iy intellektning tarmoq rivojlanish strategiyasiga integratsiya qilish ijobiy iqtisodiy samara berayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston misolida raqamlashtirish va kreativ industriyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan izchil davlat siyosati loyihalar sonining oshishi, moliyalashtirish hajmining kengayishi hamda sohada bandlik darajasining ortishi bilan kechayotgani namoyon bo'ladi. Bu esa kreativ iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning yuqori multiplikativ samaradorligini hamda uning uzoq muddatli iqtisodiy o'sish drayverlaridan biri bo'lish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Kreativ iqtisodiyotda sun'iy intellekt salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishning muhim sharti inson kapitalini rivojlantirish hisoblanadi. Ijodiy, raqamli va texnologik ko'nikmalarni uyg'unlashtirgan fanlararo kompetensiyalarga ega mutaxassislarni ommaviy tayyorlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Sun'iy intellekt bilan ishlashga yo'naltirilgan millionlab mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha belgilangan maqsadlar ta'lim tizimi kreativ iqtisodiyotning yangi texnologik sharoitlarga moslashish chegaralari va sur'atlarini belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontentning keng tarqalishi intellektual mulkni tartibga solishning amaldagi huquqiy mexanizmlarining cheklanganligini ham ochib bermogda. Mualliflik va mutlaq huquqlar haqidagi an'anaviy konsepsiyalar inson va algoritmik tizimlar hamkorligida yaratiladigan ijodiy natijalar mavjud bo'lgan yangi reallikka to'liq mos kelmaydi. Shu sababli xalqaro tajribani inobatga olgan holda normativ-huquqiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish hamda mualliflar, texnologiya ishlab

chiquvchilar va foydalanuvchilar manfaatlarini muvozanatli himoya qiluvchi yechimlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt institutsional va strategik jihatdan puxta joriy etilgan taqdirda kreativ iqtisodiyotning barqaror rivojlanish omiliga aylanishi mumkin. O'zbekiston tajribasi sun'iy intellektni kreativ industriyalarga integratsiya qilish nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga, balki yangi bandlik modellari shakllanishiga, global raqobatbardoshlikning oshishiga hamda mamlakatning xalqaro kreativ makondagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlarni ushbu sohadagi uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlarni baholash hamda inson va intellektual tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga solishning moslashuvchan mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:**

Adomavicius, G. and Tuzhilin, A. (2005) 'Toward the next generation of recommender systems: A survey of the state-of-the-art and possible extensions', *IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering*, 17(6), pp. 734–749.

Brynjolfsson, E. and McAfee, A. (2014) *The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies*. New York: W.W. Norton & Company.

Florida, R. (2012) *The rise of the creative class: Revisited*. New York: Basic Books.

Goodfellow, I., Pouget-Abadie, J., Mirza, M. et al. (2014) 'Generative adversarial nets', *Advances in Neural Information Processing Systems*, 27, pp. 2672–2680.

G'ulyamov, S.S. (2026) *Yangi O'zbekiston kreativ iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi*. Monografiya. Toshkent: Dizayn Market.

Mirziyoyev, Sh.M. (2021) *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent. Available at: <https://qr.natlib.uz/file/read/7079bcf5-4683-4413-83df-9e1034603997.pdf>

Nedelkoska, L. and Quintini, G. (2018) *Automation, skills use and training*. OECD Social, Employment and Migration Working Papers, No. 202. Paris: OECD Publishing.

O'zbekiston Respublikasi (2024) "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RBQ-970-son Qonun. 3-oktabr. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/7129290>

O'zbekiston Respublikasi (2026) "Sun'iy intellektni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-1115-son Qonun. 21-yanvar. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/8011377>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022a) "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmon. 28-yanvar. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/5841077>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022b) "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmon. 6-iyul. Available at: <https://lex.uz/docs/6102464>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024) "2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son Qaror. 14-oktabr. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/7158606>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2025) "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son Farmon. 22-oktabr. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/7790236>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2026) "Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-64-son Qaror. 16-fevral. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/8050797>

UNCTAD (2022) *Creative Economy Outlook 2022*. United Nations Conference on Trade and Development.